# Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2025-yil 6-avgust, № 159 (9054) Chorshanba Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# ISHONCHLI YANGI TRANZIT YO‘LAKLARI VA LOGISTIKA INFRATUZILMASI – BARQAROR TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun 4-5-avgust kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.**





Davlatimiz rahbari 5-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalariga bag‘ishlangan maxsus tadbirda ishtirok etdi.

Tadbirda Turkman xalqining Milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Qasimaliyev, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, shuningdek, rasmiy delegatsiyalar a’zolari va jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Toshkent shahrida bo‘lajak Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlikning asosiy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning ushbu formatdagi raisligi doirasida birgalikda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berdi. Xususan, yil boshida Raislik konsepsiyasi va Qo‘shma tadbirlar rejasi qabul qilindi.

Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar rahbarlari, sanoat, energetika, suv xo‘jaligi va ekologiya vazirlarining uchrashuvlari, media va yoshlar forumlari o‘tkazildi.

Yil yakuniga qadar parlamentlararo forum, mudofaa, savdo va transport vazirlarining uchrashuvlari, madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mintaqaviy sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish va uning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida uchrashuvning konseptual hujjatlari tayyorlanmoqda.

Toshkent sammiti doirasida O‘zbekiston tomoni siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, iqtisodiy kooperatsiyaning yangi drayverlarini ishga tushirish, chegaraoldi savdoni ko‘paytirish bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surish niyatida ekani ta’kidlandi. Suv va energetika sohalarida, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kengaytirish hamda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha amaliy hamkorlik masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Ozarbayjon tomonining uchrashuvlarda ishtirok etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugungi kunda mintaqa davlatlari Ozarbayjon bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Savdo, transport, "yashil" energetika sohalarida qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti so‘zining yakunida Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan va kelishilgan yondashuvlari mintaqada taraqqiyot va farovonlik maqsadlariga erishishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun" ordenini tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Turkman xalqining Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va qardosh turkman xalqiga yuksak davlat mukofoti uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

– Ushbu mukofotni O‘zbekiston va uning ko‘p millatli xalqiga alohida e’tibor va hurmat, Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi umumiy sa’y-harakatlarimizning e’tirofi sifatida qabul qilaman, – dedi davlatimiz rahbari.

Boy tarixiy tajriba, qardoshlik va o‘zaro hurmat an’analariga asoslangan O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Keyingi yillarda muhim iqtisodiy va gumanitar loyihalar amalga oshirildi, o‘zaro savdo hajmi va kooperatsiya ko‘lami keskin oshdi.

O‘zbekiston yetakchisi Arqadag‘ va mintaqaning barcha davlatlari rahbarlari Markaziy Osiyoda hamkorlikni ilgari surishga ulkan hissa qo‘shayotganini alohida qayd etdi. Bugun butun xalqaro hamjamiyat mintaqaviy sheriklik va o‘zlikning yangi modelini barpo etishdagi umumiy muvaffaqiyatlarimizni e’tirof etayotgani ta’kidlandi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari yuksak mukofot uchun yana bir bor minnatdorlik bildirib, qardosh turkman xalqini shu kunlarda o‘tayotgan BMT konferensiyasi bilan tabrikladi hamda joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida Xalqaro tinchlik va ishonch yili doirasidagi global sammit muvaffaqiyatli o‘tishini tiladi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahridagi "Avaza" milliy turizm hududida o‘tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etdi.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o‘tgan tadbirda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, boshqa qator davlat va hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

➡ 2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING DENGIZGA CHIQISH YO‘LIGA EGA BO‘LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BO‘YICHA UCHINCHI KONFERENSIYASIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Turkmaniston Prezidenti hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga va Turkmaniston xalqining Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi hurmatli Gurbanguli Myalikguliyevich Berdimuhamedovga samimiy qabul va bugungi konferensiyani yuksak darajada tashkil etganlari uchun chin qalbimdan minnatdorlik izhor etaman.

Ushbu forumning Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e’lon qilingan Xalqaro tinchlik va ishonch yilida, Kaspiy mo‘jizasi – go‘zal Avazada o‘tkazilayotgani ramziy ma’noga ega.

O‘zbekiston qardosh Turkmanistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, global va mintaqaviy barqarorlik hamda farovonlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuqori baholaydi va qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish janoblariga dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning muammolarini ustuvor xalqaro masala sifatida ilgari surishga shaxsan e’tibor ko‘rsatib kelayotgani uchun alohida tashakkur bildiraman.

Biz Avaza siyosiy deklaratsiyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz va o‘n yillik Harakatlar dasturini amalga oshirishda faol ishtirok etamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar barchamiz uchun hayotiy muhim ahamiyatga egadir.

Ta’kidlash kerakki, mamlakatimiz dengiz kommunikatsiyalariga faqat bir necha davlatlar hududi orqali chiqishi mumkin. Biz uchun deyarli uch ming kilometr masofada joylashgan portlardan geografik olislik bir qator obyektiv muammolarni vujudga keltirmoqda. Bular – yuqori tariflar, transport yo‘laklari va infratuzilmalarning o‘tkazish imkoniyati cheklangani, shuningdek, boshqa davlatlarning bojxona-tranzit siyosatiga bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra transport xarajatlarining kattaligi va tranzit tizimining beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning ikki foizigacha yo‘qotmoqda. Logistika xarajatlari mahsulotlar umumiy narxida 60 foizgacha yetmoqda. Bu raqam jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan bir necha barobar yuqoridir.

Shu bois ishonchli yangi tranzit yo‘laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala – adolat masalasiga daxldordir. Bu – dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta’minlashdir.

Bu o‘ta dolzarb vazifani hal etish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozim. Bular – barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarini bartaraf etish maqsadida o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, global teng huquqlilikning muhim elementi bo‘lgan rivojlanish huquqini ta’minlashdir.

Shu maqsadda O‘zbekistonda so‘nggi yillarda, xususiy sektorni faol jalb etgan holda zamonaviy transport-logistika tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha tizimli qadamlar tashlanganini alohida ta’kidlamoqchiman.

Mamlakatimiz logistika ochiqligi va shaffofligi masalalarida yuqori dinamika ko‘rsatmoqda. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlar, savdo tizimi liberallashgani va investitsiya muhiti tubdan yaxshilangani salmoqli natijalar bermoqda. Raqobatbardoshlik oshdi, innovatsion taraqqiyot tezlashdi.

Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va sheriklik yangi darajaga ko‘tarilgani esa jadal o‘zgarishlarga kuchli turtki bermoqda.

Hozirgi kunda mintaqamizda yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi to‘laqonli tranzit xabiga aylantirish uchun dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zaro savdo hajmi 4,5-marta, sarmoyalar esa ikki barobar o‘sdi. Qo‘shma korxonalar soni besh karra ko‘paydi.

Joriy yilda hamkorlarimiz bilan birga Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishiga kirishdik. O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya transport yo‘lagida yuk tashish hajmi sezilarli darajada o‘sdi.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Bugun umumiy tahdid va muammolarni yengib o‘tish bo‘yicha aniq, amaliy va institutsional jihatdan ta’minlangan qarorlar o‘ta muhimdir.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston quyidagilarni taklif etadi.

**Birinchidan**, xalqaro transport yo‘laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun muvofiqlashtirilgan harakatlar zarur.

Biz O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston temir yo‘lini qurish loyihasini tayyorlash va amalga oshirishni tezlashtirish tarafdorimiz. Ushbu istiqbolli yo‘lakni qurilayotgan Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘l magistrali bilan bog‘lash keng mintaqamizda yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Biz, shuningdek, O‘rta yo‘lakni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Uni to‘liq ishga tushirish uchun, birinchi navbatda, kelishilgan tranzit siyosati, tartibotlarni soddalashtirish va konteynerlarda yuk tashish uchun maqbul tariflarni joriy etish muhimdir.

**Ikkinchidan**, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to‘g‘risidagi global bitimni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Bunday mexanizm portlar va kommunikatsiyalardan adolatli foydalanish shartlarini ta’minlaydi, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytiradi, global logistikada tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun moslashuvchan investitsiya vositalariga talab tobora o‘sib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sarmoyalar yiliga qariyb 40 milliard dollar deb baholanmoqda.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga ko‘maklashish jamg‘armasini ta’sis etishni taklif etamiz. Ushbu jamg‘armaga donor mamlakatlar, xalqaro rivojlanish institutlari va global dasturlar resurslarini keng jalb etish maqsadga muvofiq.

**To‘rtinchidan**, dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari suramiz.

Bu mamlakatlarimizning tranzit borasida cheklangan imkoniyatlarini xolis ko‘rib chiqish va mavjud sharoitlardan kelib chiqib xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlashning ta’sirchan vositasiga aylanadi.

Eng asosiysi – ushbu indeks mamlakatlarimizning raqobatbardoshligi va ishbilarmonlik muhitini adolatli baholashda hisobga olinishi kerak.

**Beshinchidan**, O‘zbekistonda agrotarmoqni rivojlantirish uchun Innovatsion xabni yaratish bo‘yicha taklifimizni amalga oshirish prinsipial ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Mazkur xab moslashuvchan agrotexnologiyalarni tatbiq etish, suvni tejash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga oid innovatsion loyihalarni ilgari surish, o‘zaro bilim va tajriba almashishga xizmat qiladi.

**Oltinchidan**, umumiy tahdidlarni birgalikda bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqishga mamlakatlarimiz yetakchi ekspertlari va "aql markazlari"ni faol jalb etish muhim.

Bu borada xalqaro anjuman va davra suhbatlari o‘tkazishni taklif qilamiz. Bunday tadbirlar kun tartibiga global ishlab chiqarish zanjirlariga mamlakatlarimizning chuqur integratsiyasini ta’minlash, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, transchegaraviy investitsiyalarni kengaytirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash masalalarini kiritish mumkin.

O‘zbekiston, shuningdek, dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun Xalqaro tahlil markazi faoliyatiga qo‘shilish niyatida.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Global bozorlarga chiqish barcha uchun teng bo‘lishi kerak. Bu – nafaqat iqtisodiy zarurat, balki birinchi galda, barqaror rivojlanishning muhim omili, xalqaro munosabatlarda ishonch va hamkorlik shartidir.

O‘zbekiston global taraqqiyotning yanada adolatli arxitekturasini shakllantirish borasida konstruktiv va uzoq muddatli sheriklikka doim ochiq va tayyor ekanini sizlarga yana bir bor bildirmoqchiman.

# ISHONCHLI YANGI TRANZIT YO‘LAKLARI VA LOGISTIKA INFRATUZILMASI – BARQAROR TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

1 Kun tartibiga muvofiq transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi va ekologik tahdidlarga bardoshlilikni oshirish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Turkmanistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, global va mintaqaviy barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuksak baholadi.

Konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar hayotiy muhim ahamiyatga ega ekanini, chunki dengiz portlaridan jug‘rofiy uzoqlik va bir necha mamlakat hududlarini kesib o‘tish zarurati bir qator obyektiv muammolarni keltirib chiqarayotganini ta’kidladi.

Tariflarning yuqoriligi, transport yo‘laklari va infratuzilmasining cheklanganligi, boshqa mamlakatlarning bojxona-tranzit siyosatiga qaramlik shular jumlasidan.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra katta transport xarajatlari va tranzitning beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning 2 foizigacha yo‘qotmoqda.

Logistika xarajatlari tovarlar qiymatining 60 foizigacha qismini tashkil etadi, bu esa jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan bir necha barobar yuqoridir.

Shu munosabat bilan yangi ishonchli tranzit yo‘laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylanmoqda.

– Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala – adolat masalasiga daxldor. Bu dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta’minlashdir, – dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Shu bilan birga, ushbu dolzarb muammoni hal qilish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozim.

Bular barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarining oldini olish maqsadida o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish va global teng huquqlilikning asosiy elementi bo‘lgan rivojlanish huquqini ta’minlashdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xususiy sektorni faol jalb qilgan holda zamonaviy transport-logistika tarmog‘ini shakllantirish bo‘yicha tizimli qadamlar qo‘yildi. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilayotgan tarkibiy iqtisodiy islohotlar, savdo tizimini liberallashtirish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash sezilarli natijalar bermoqda: raqobatbardoshlik oshdi, innovatsion rivojlanish jadallashdi.

– Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va sheriklik yangi darajaga ko‘tarilgani esa jadal o‘zgarishlarga kuchli turtki bermoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Bugun mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi to‘laqonli tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 4,5 barobar ko‘paydi. Investitsiyalar ikki barobar, qo‘shma korxonalar soni besh barobar ko‘paydi.

Joriy yilda hamkorlar bilan Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi boshlandi, O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya transport yo‘lagi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan mamlakatlarning umumiy tahdid va muammolarini bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti qator aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, xalqaro transport yo‘laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun o‘zaro muvofiqlashgan harakatlarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston temir yo‘lini qurish loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish va uni qurilayotgan Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘l magistrali bilan tutashtirish muhimligi ta’kidlandi.

– Bu keng mintaqamizda yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi, – dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Davlatimiz rahbari O‘rta yo‘lak salohiyatini, eng avvalo, o‘zaro kelishilgan tranzit siyosatini yuritish, qoidalarni unifikatsiya qilish va konteyner tashuvlari uchun maqbul tariflarni joriy etish orqali to‘liq ishga solishga chaqirdi.

O‘zbekiston Prezidenti, shuningdek, BMT shafeligida dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to‘g‘risidagi global bitimni ishlab chiqishni taklif qildi.

Hujjat portlar va kommunikatsiyalardan adolatli foydalanish shartlarini ta’minlash, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytirish, global logistikada tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan.

Yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun moslashuvchan investitsiya vositalariga talab ortib borayotganini hisobga olib, davlatimiz rahbari BMT shafeligida Dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga ko‘maklashish jamg‘armasini tuzish tashabbusini ilgari surdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport infratuzilmasi uchun investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoji yiliga qariyb 40 milliard dollarga baholanmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston rahbari tranzit imkoniyatlarining cheklanishini xolisona aniqlash, xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni real sharoitlarni hisobga olgan holda samarali taqsimlash maqsadida dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekistonda agrar sohani rivojlantirish bo‘yicha Innovatsion xabni tashkil etish taklifini amalga oshirish muhimligiga e’tibor qaratildi. Bu moslashuvchan agrotexnologiyalarni joriy etish, suvni tejash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha innovatsion loyihalarni ilgari surish, bilim va tajriba almashishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti yetakchi ekspertlar va “aql markazlari”ni umumiy tahdidlarni yengib o‘tish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga faol jalb qilish, shu jumladan, xalqaro anjuman va davra suhbatlari o‘tkazish muhimligini qayd etdi.

– Bunday tadbirlar kun tartibiga global ishlab chiqarish zanjirlariga mamlakatlarimizning chuqur integratsiyasini ta’minlash, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, transchegaraviy investitsiyalarni kengaytirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash masalalarini kiritish mumkin, – dedi Prezident.

Shuningdek, O‘zbekiston dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun Xalqaro tahlil markazi faoliyatiga qo‘shilish niyatida ekani ma’lum qilindi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari mamlakatimiz global taraqqiyotning yanada adolatli arxitekturasini shakllantirish bo‘yicha konstruktiv va uzoq muddatli sheriklikka tayyor ekanini tasdiqladi.

Konferensiya yakunida Avaza siyosiy deklaratsiyasi qabul qilindi.

BMTning Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha konferensiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Global va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb masalalari, shu jumladan, BMT Bosh Assambleyasining bo‘lajak 80-yubiley sessiyasini o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston yetakchisi Bosh kotibning xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, BMT va uning asosiy institutlarini zamonaviy voqelikka moslashtirish maqsadida isloh qilish borasidagi tashabbuslarini qat’iy qo‘llab-quvvatladi.

O‘zbekiston bilan BMT o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, Antoniu Guterrishning o‘tgan yil iyul oyidagi mamlakatimizga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda 160 ta qo‘shma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

So‘nggi bir necha yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Joriy yilda tashkilotning asosiy tuzilmalari va institutlari, jumladan, BMT-Xabitat va YUNISEF rahbarlari O‘zbekistonga tashrif buyurdi, Toshkentda “BMT-Ayollar” tuzilmasining vakolatxonasi ochildi.

Davlat xizmati masalalari bo‘yicha forum birgalikda o‘tkazildi. Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Mamlakatimiz Global barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi bo‘yicha eng ilg‘or beshta davlat qatoriga kirdi. BRMga erishish nuqtayi nazaridan BMT bilan hamkorlik bo‘yicha yangi besh yillik dastur imzolanishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish, Afg‘onistonni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida tomonlar amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish, qo‘shma dastur va loyihalarni kengaytirishga tayyor ekanini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga amaliy tashrifi doirasida Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidzeni qabul qildi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalardagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Gruziya Bosh vazirining joriy yil mart oyida O‘zbekistonga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol idoralararo aloqalar davom etmoqda, tashqi ishlar va iqtisodiyot vazirlarining uchrashuvlari o‘tkazildi. Tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi, qo‘shma loyiha va korxonalar soni oshmoqda.

O‘zaro tovar yetkazib berishni ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat tarmoqlarida, shuningdek, logistika sohasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish muhimligi qayd etildi.

Avazada o‘tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadovning uch tomonlama uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Eng avvalo, energetika, transport va logistika, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Amaliy hamkorlikning istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish uchun mazkur formatdagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Serdar Berdimuhamedovni Xalqaro tinchlik va ishonch yilida BMTning global konferensiyasi yuqori saviyada o‘tkazilgani bilan samimiy qutlab, Turkmanistonning yuksak davlat mukofoti – “Hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ordeni bilan taqdirlagani uchun minnatdorlik bildirdi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik doirasida O‘zbekiston – Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash izchil ortib borayotgani, sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi sohalarida kooperatsiya kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Faol hududlararo va gumanitar almashinuvlar davom etmoqda.

Joriy yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan hukumatlararo komissiyalar yig‘ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi va qator madaniy tadbirlar natijadorligini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi, oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko‘rib chiqildi.

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha konferensiyasi doirasida davlat rahbarlari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon milliy kunlariga bag‘ishlangan tadbirlarda ishtirok etdilar.

Milliy kunlar mintaqa xalqlarining boy madaniy merosini, mustahkamlanayotgan qo‘shnichilik aloqalarini va kengayib borayotgan madaniy-gumanitar hamkorligini namoyish etish maqsadida uyushtirildi.

Bu yerda an’analar va hunarmandchilikka bag‘ishlangan, madaniyat, san’at va turizm sohalaridagi zamonaviy yutuqlar aks etgan milliy pavilyonlar ochilgan. Shuningdek, milliy taomlar ko‘rgazmasi va pazandachilik bo‘yicha mahorat darslari tashkil etilgan.

An’anaviy o‘zbek hovlisi ko‘rinishida qurilgan O‘zbekiston pavilyoni tashrif buyuruvchilarda yorqin taassurot qoldirdi.

Tadbir mintaqaviy o‘ziga xoslik va madaniy rang-baranglikning navbatdagi namunasi sifatida o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga hamda Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoni sifatida namoyon etishga xizmat qildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

**O‘zA.**

# O‘ZBEKISTON RAHBARI IZCHIL VA TIZIMLI RAVISHDA MINTAQAVIY MULOQOTNING YANGI ARXITEKTURASINI BUNYOD ETMOQDA

## O‘zbekiston Prezidentining BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasidagi ishtirokiga xorijdan nigoh

**E’tirof**

**Fumixiko KATO, “Yaponiya – O‘zbekiston” assotsiatsiyasi raisi, 2013 – 2016-yillarda Yaponiyaning mamlakatimizdagi elchisi:**



– Tashqi siyosatning maqsadi, o‘zining ta’rifi bilan aytganda, boshqa davlatlar bilan shunday konstruktiv munosabatlar o‘rnatishdan iboratki, ular fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yaxshilashga, milliy xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo‘shishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasidagi ishtiroki zamonaviy diplomatiyaning fundamental vazifalariga to‘la mos keladigan qadamdir. Tadbirning BMT shafeligida o‘tkazilishi umumiy tuzilmaviy muammo – jahon dengiz yo‘llaridan geografik jihatdan izolyatsiya qilingan davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Turkmanistonga tashrif doirasida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan uchrashuvlar alohida ahamiyat kasb etdi. Mintaqaning qo‘shni davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni, jumladan, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash jihatlarini mustahkamlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Qo‘shni mintaqada muhim iqtisodiy rol o‘ynaydigan Ozarbayjonning muloqotga qo‘shilishi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Ozarbayjon ishtirokidagi hamkorlik keng yo‘nalishlarni ochib beradi. Iqtisodiyotlarning bir-birini to‘ldirishini hisobga olgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik, qurilish va logistika sohasida infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi hamda ilg‘or texnologiyalar, sheriklik, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi aloqalar ana shular jumlasidandir.

Ushbu tashrif va bo‘lib o‘tgan tadbirlar Markaziy Osiyo makonida va undan tashqarida mintaqaviy bog‘liqlik, o‘zaro ishonch hamda anglashuvni mustahkamlashga katta hissa qo‘shishi mumkin.

**Derya SOYSAL, “Eureporter” elektron nashri vakili, Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bo‘yicha ekspert:**

– Hozirgi kunda O‘zbekiston zamonaviy



transport yo‘laklari va logistika yechimlarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda barqaror transport-logistika infratuzilmasini shakllantirish, savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotir.

Shu bilan birga, O‘zbekiston qator yirik xalqaro loyihalar, jumladan, Transafg‘on temir yo‘l koridorini yaratish, O‘rta transport koridorini rivojlantirish va boshqa loyihalarning tashabbuskori hamda ishtirokchisi hisoblanadi. Ushbu ustuvorliklar milliy rivojlanish strategiyasida markaziy o‘rinni egallab, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilyapti.

Ko‘p vektorli transport strategiyasi allaqachon aniq natijalarni bermoqda. Shuningdek, tranzit hajmi oshib borayotir, O‘zbekistonning Yevroosiyoning asosiy logistika markazi sifatidagi roli mustahkamlanmoqda. Dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati yo‘qligiga qaramay mamlakat geografik cheklovlarni muvaffaqiyatli yengib, ularni global jahon iqtisodiyotiga integratsiyalash yo‘lida strategik ustunlikka aylantirmoqda.

**Kuban TAABALDIYEV, qirg‘izistonlik siyosatshunos, “Ala-Too” xalqaro universiteti professori:**



– BMTning Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi transport va logistika infratuzilmasi, savdoni osonlashtirish, mintaqaviy integratsiya hamda tashqi ta’sirlarga chidamlilik masalalariga bag‘ishlandi.

Bu mavzular, ayniqsa, dengizdan ikki baravar uzoqda joylashgan dunyoning ikki davlatidan biri bo‘lgan O‘zbekiston uchun dolzarbdir.

O‘zbekiston o‘zining geografik muammosini faol ravishda strategik ustunlikka aylantirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy va Janubiy Osiyoning o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash, Transafg‘on yo‘lagini barpo etish, “Buyuk Ipak transport halqasi” konsepsiyasini ishlab chiqish, transport platformalarini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar mamlakatning dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlarni rivojlantirish dasturlari doirasidagi majburiyatlariga bevosita mos keladi.

Shu yil aprel oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” sammitida yangi strategik “Yo‘l xaritasi” qabul qilingan edi. Uning maqsadi mintaqaning YEI bilan transport va xomashyo integratsiyasini kuchaytirish va Transkaspiy yo‘lagi orqali jahon bozorlariga xavfsiz chiqishni ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan boshqa Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni faol qo‘llab-quvvatlaydi va mintaqada ham, undan tashqarida ham transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish strategiyasini ilgari suradi.

Transport loyihalarini amalga oshirish uchun O‘zbekiston mintaqaviy formatlar – SHHT, TDT va SPESAda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda temir yo‘llarni modernizatsiya qilish, multimodal terminallar qurish, logistika xablarini yangilash, “O‘znavigator” raqamli platformasini joriy etish respublikani Markaziy, Janubiy va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi muhim transport ko‘prigiga aylantirmoqda.

O‘zbekistonning faoliyati BMTning dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan mamlakatlarning transport aloqalarini yaxshilash va Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi. O‘zbekiston BMTga Markaziy va Janubiy Osiyo bo‘yicha ko‘plab davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, mintaqaviy infratuzilma va integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan rezolyutsiyani taqdim etdi. Strategiya geografik uzoqlikni logistik ustunlikka aylantirish, iqtisodiyotning tashqi zarbalarga chidamliligini oshirish g‘oyasiga asoslanadi.

**Antonio ALONSO, San Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha mutaxassis (Ispaniya):**

– Kasbiy faoliyatimning salmoqli qismini Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va davlatchilik jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlagan inson sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyati meni chindan ham hayratda qoldiradi.

Birinchidan, uning mintaqa mamlakatlari



o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik aloqalarni mustahkamlashdagi beqiyos rolini ta’kidlamaslik mumkin emas.

Davlatingiz rahbarining Turkmanistonga tashrifi, xalq yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan bo‘lgan mazmunli uchrashuvlari o‘zbek diplomatiyasining yetukligi va siyosiy donoligini yaqqol namoyon etdi. Bu shunchaki protokol tadbirlari emas, bu ishonchni mustahkamlash va hamkorlik uchun yagona makonni shakllantirishga qaratilgan aniq qadamlardir.

Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashabbuslarga asoslangan siyosiy yetakchilik namunasini ko‘rsatmoqda.

“Shovot – Toshhovuz” chegara savdo zonasining yaratilishi, tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi, yangi hukumatlararo platformalarning ishga tushirilishi – bularning barchasi uning integratsiyaning iqtisodiy tomonlarini chuqur anglaganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, tadqiqotchi sifatida men O‘zbekiston yetakchisining mintaqaviy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan uzoqni ko‘rgan yondashuvidan ilhomlanaman. Toshkentda bo‘lib o‘tadigan yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish, iqlim va suv masalalari bo‘yicha kun tartibini ishlab chiqish, “yashil” energiyaga urg‘u berish nafaqat dolzarb mavzular, balki mintaqa kelajagi uchun strategik qadamdir. O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo manfaatlar mutanosibligi, hamjihatlik va suverenitetga hurmat ruhi bilan qarashga asoslangan xalqaro sheriklikning yangi formati uchun namuna bo‘la olishini yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

Va nihoyat, Prezident Shavkat Mirziyoyevga Turkmaniston oliy ordenining topshirilishi bilan ifodalangan xalqaro e’tirofning yuksak darajasini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Bu nafaqat shaxsan unga bo‘lgan hurmat belgisi, balki O‘zbekistonning mutanosib, ilg‘or, bunyodkorlik siyosatini olib borayotgan davlat sifatidagi nufuzining tasdig‘idir.

**“Dunyo” AA.**

# DO‘STLIK VA QARDOSHLIK AN’ANALARIGA ASOSLANGAN SHERIKLIK

**Munosabat**

*So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatda do‘stlik, ishonch va o‘zaro manfaatlar asosidagi munosabatlarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab oldi. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan pragmatik va o‘zaro manfaatli aloqalari bugun dunyo davlatlariga namuna bo‘lmoqda.*

Bu jarayonda Turkmaniston bilan munosabatlar alohida o‘rin tutadi, zero o‘zbek va turkman xalqlari qadimdan yaqin do‘st, ahil qo‘shni, strategik hamkor hisoblanadi. Ikki xalqning tarixiy ildizlari va dini birligi, tili, madaniyati, an’analarining mushtarakligi sheriklikning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi yaqinlik keyingi yillarda kengayib, yangi – strategik iqtisodiy sheriklik bosqichiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston – Turkmaniston hamkorligi o‘sish sur’atlarini ifodalash uchun raqamlarga murojaat qilsak, savdo aylanmasida dinamik o‘sish kuzatilayotganini ko‘rish mumkin. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yil yakunida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1,1 mlrd. AQSH dollariga yetdi. 2025-2026-yillarda bu ko‘rsatkichni 2 mlrd. dollarga yetkazish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

O‘zaro savdo munosabatlarida O‘zbekistondan Turkmanistonga eksport qilinayotgan asosiy tovarlar – oziq-ovqat, maishiy texnika, qurilish materiallari va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beriladi. Turkmanistondan esa, asosan, gaz-kimyo mahsulotlari, neft xomashyosi, paxta tolasi va transport vositalari keltiriladi.

O‘zbekiston uchun Turkmaniston orqali xalqaro bozorlarga chiqish yo‘li nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Turkmanboshi xalqaro porti orqali Eron, Kuvayt va umuman, Fors ko‘rfazi davlatlariga chiqish imkoniyati yurtimiz eksportida yuk tashish xarajatlarini kamaytiradi, mahsulotlarning mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqishida logistika muddatlarini qisqartiradi.

Shu bois ikki davlat o‘rtasidagi transport va tranzit tashuvlari sohasidagi hamkorlik uzoq muddatli manfaatlarga xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron temir yo‘l koridori faoliyati yanada faollashtirilmoqda. Endilikda mazkur yo‘nalishga Yevropa – Osiyo savdo qatnovida muqobil yo‘l sifatida qarala boshlandi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 600 mln. dollarga yetdi, sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda.

Birgalikda “Shovot – Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi tashkil qilinayotir, faol hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlar davom ettirilmoqda. Va ishonch bilan ta’kidlaymizki, yaqin istiqbolda ikki mamlakat mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida yetakchi hamkorga aylanadi. Bunda har bir yangi loyiha nafaqat iqtisodiy samara, balki mintaqada barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, asrlar mobaynida shakllanib kelgan do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

**Pokiza AXMEDJANOVA,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi a’zosi.**

Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport quriladi.



Onlayn muloqot

## PARLAMENTLARARO HAMKORLIK GURUHLARINING BIRINCHI QO‘SHMA MAJLISI O‘TKAZILDI

*Kecha Oliy Majlis Senatida “O‘zbekiston – Polsha” va “Polsha – O‘zbekiston” parlamentlararo hamkorlik guruhlarining birinchi qo‘shma majlisi onlayn shaklda o‘tkazildi.*

Unda ushbu guruhlarning faoliyatini kuchaytirish, parlamentlararo va savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Majlisda so‘nggi yillarda ikki mamlakat rahbarlarining qat’iy siyosiy irodasi va birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston va Polsha o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari faol rivojlanayotgani alohida ta’kidlandi.

O‘zbekiston va Polsha o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda parlamentlararo aloqalar muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilib, savdo-iqtisodiy, investitsiya, eksport, transport, qishloq xo‘jaligi, ilm-fan, madaniyat, turizm va migratsiya sohalarida o‘zaro aloqalarni yanada kengaytirishga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish va tadbirkorlar o‘rtasida ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish tashabbusi ilgari surilib, “O‘zbekiston – Polsha” va “Polsha – O‘zbekiston” parlamentlararo hamkorlik guruhlari o‘z faoliyatlari doirasida investitsiyalar va savdo sohasini qo‘llab-quvvatlashga hamda ko‘maklashishga alohida urg‘u berishga kelishib olindi.

Majlis yakunida ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish, parlamentlararo guruhlarning faoliyatini kuchaytirish, keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, o‘zaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan aniq tadbirlar rejasi – “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladigan bo‘ldi.

**“Xalq so‘zi”.**

Senator so‘rovi

## ISSIQXONA XO‘JALIKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA QANDAY ISHLAR QILINMOQDA?

*So‘nggi yillarda mamlakatimizda issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezidentning bir qator qarorlari qabul qilinib, imtiyozli kreditlar, subsidiya va soliq yengilliklari joriy etilgan.*

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Anvar To‘ychiyev tomonidan Qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonovga issiqxona xo‘jaliklari rivoji va ushbu yo‘nalishda uchrayotgan tizimli muammolar yuzasidan senator so‘rovi yuborildi.

Senator so‘rovida issiqxona xo‘jaliklarini moliyalashtirishda barqaror mexanizmlarning yetishmasligi, tabiiy gaz, elektr energiyasi va suv ta’minotidagi uzilishlar hamda yuqori foizli kreditlar tufayli ayrim xo‘jaliklarning bank balansiga o‘tib ketayotgani haqida so‘z yuritiladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil may holatiga 120 gektardan ortiq issiqxona banklar balansiga o‘tgan. Bu esa ish o‘rinlarining qisqarishi va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelgan.

Shuningdek, senator qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini nazorat qilish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ilmiy asoslangan agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, fermer va tadbirkorlarni urug‘chilik, agrokimyo xizmatlari bilan ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligiga e’tibor qaratgan.

Yuqorida sanalgan masalalar yuzasidan Qishloq xo‘jaligi vazirligidan 2020 – 2024-yillarda tashkil etilgan issiqxona xo‘jaliklari soni va holati, sohani moliyalashtirishda amaldagi mexanizm, tabiiy resurslar bilan barqaror ta’minlashdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha qabul qilinayotgan choralar, ilmiy yondashuvlar va innovatsion yechimlarni joriy etish holati, eksport salohiyatini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ishlar bo‘yicha tahliliy va asoslangan yozma ma’lumot taqdim qilishi so‘ralgan.

**“Xalq so‘zi”.**

Dolzarb masalalar muhokamasi:

# DAXLDORLIK HISSI VA MAS’ULIYAT

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab o‘tgan haftada Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda muhim sohalarni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan qator yig‘ilishlar o‘tkazilgani haqida so‘z yuritildi. Xususan, 29-iyul kuni maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan taqdimotda korrupsiya omillarining kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini kuchaytirish vazifa sifatida belgilangani ta’kidlandi.*



## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Deputatlar korpusining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonidagi ishtirokini yanada kuchaytirishga doir Kengash qarori qabul qilingani va Chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangani qayd etildi.

Hududlar, muhim soha va tarmoqlarda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ishlar holatini o‘rganish, parlament nazoratini olib borish, qonun loyihalaridagi korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalarni bartaraf qilish borasidagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangani, korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olishda parlament a’zolari yanada faol va tashabbuskor bo‘lishlari talab etilishi aytildi.



30-iyul kuni yana bir muhim yo‘nalish – meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sohada amalga oshirilayotgan ishlar chuqur tahlildan o‘tkazilib, erishilgan yutuqlar bilan birga, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgani ma’lum qilindi. Bu, o‘z navbatida, parlamentga ham alohida mas’uliyat yuklashi urg‘ulandi.

Majlisda, shuningdek, deputatlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligiga xalqaro standartlar darajasida erishish, kam ta’minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish, shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risidagi hamda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.

### Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi xalqaro standartlar darajasida ta’minlanadi

Majlisda “Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqildi.

Bu bilan oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, prinsiplari, davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari aniq belgilab berilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi bo‘yicha sanitariya choralari, qoida hamda normalarni ishlab chiqish va qo‘llash tartibi xalqaro qoida hamda normalar bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, qadoqlash, o‘rash va tamg‘alash kuzatilishini ta’minlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilishga qo‘yiladigan umumiy talablar, ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari mustahkamlab qo‘yilyapti.

Ushbu qonun loyihasi oziq-ovqat biznesi operatorlari, ya’ni oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish, realizatsiya, utilizatsiya va yo‘q qilish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning majburiyatlarini va o‘z navbatida, mas’uliyatini ham belgilamoqda.

Jahon savdo tashkilotining talablari hamda rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida oziq-ovqat mahsulotining muomalasi bilan bog‘liq barcha jarayonni to‘liq nazorat qilish imkonini beruvchi ochiq va shaffof oziq-ovqat operatorlarining elektron reestri joriy etilmoqda.

Majlisda aytilganidek, ushbu qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 29-iyul kuni bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilib, undagi ayrim normalar, xususan, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarining marketing va reklama ma’lumotlari bolalarni qiziqtirmaydigan tarzda ifodalanishi yoki ularga qaratilgan bo‘lmasligi kerakligiga oid modda qizg‘in bahslarga sabab bo‘lgan edi.

Mas’ul qo‘mita tomonidan deputatlar bildirgan qator takliflar chuqur tahlil qilinib, ular asosida loyihadagi ayrim normalar takomillashtirildi. Xususan, 18-moddadagi masala bu qonunning emas, balki “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning predmeti ekanligi, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan taklif etilgan norma to‘liq qamrab olinganligini inobatga olib, uni loyihadan chiqarib tashlash kerak, degan xulosaga kelindi.

Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni JST qoidalari va xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solish, sohada davlat boshqaruvi va nazorati mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda vakolatli davlat organlarining vazifalarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi uchinchi o‘qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega shaxslar toifasi kengaytiriladi

Deputatlar kam ta’minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqdi.

Ma’lumki, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun bilan sudlarda davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar toifasi belgilab qo‘yilgan. Biroq kam ta’minlangan shaxslar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda ularga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish amaldagi qonunlarda tartibga solinmagan.

Mazkur qonun loyihasi bilan davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar toifasi kengaytirilmoqda. Xususan, kam ta’minlangan shaxslar muayyan ishda o‘ziga nisbatan sud tomonidan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida Konstitutsiyaviy sudga murojaat etganda, ular davlat hisobidan yuridik yordam olishlari mumkinligi belgilanmoqda.

Loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar inobatga olinib, uning matniga aniqlashtiruvchi, tahririy hamda yuridik-texnik xarakterga ega bo‘lgan o‘zgartirishlar kiritildi.

Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, davlat hisobidan malakali yuridik yordam olish huquqini ta’minlashga hamda ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o‘qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Shaharsozlik renovatsiyasining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda

“Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi konseptual jihatdan birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Hududlarni me’moriy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan yaxshilash, eskirgan, yashash va foydalanish uchun yaroqsiz, avariya holiga kelib qolgan bino-inshootlarni yangilash, qulay va energiya samarador holatga keltirish, jumladan, ulardan unumli foydalanish hamda yer uchastkalarini qayta rejalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar shaharsozlik renovatsiyasi, deb e’tirof etilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan shaharsozlik renovatsiyasini bajarish asoslari, maqsadlari, majburiy shartlari va amalga oshirish tartibi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, har yili 145 mingta turarjoyga bo‘lgan talabni qondirish uchun 2019 – 2023-yillar davomida o‘rtacha 60 mingta, 2024-yilda esa 100 mingta yangi turarjoylar qurilgan bo‘lib, bu borada o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish uchun qo‘shimcha yer resurslari talab etilmoqda.

**Birinchidan,** qonun loyihasida hech kim renovatsiyada qatnashishga majburlanmasligi hamda renovatsiya ixtiyoriylik prinsipiga asoslanishi mustahkamlanmoqda. Ya’ni shaharsozlik renovatsiyasi loyihasini boshlash uchun barcha huquq egalari bilan notarial tartibda kelishuv bitimi imzolanishi belgilanmoqda.

**Ikkinchidan,** renovatsiya loyihasini tashabbus qilish uchun har bir obyekt huquq egalarining umumiy yig‘ilishini o‘tkazish va ularning kamida beshdan to‘rt qismining notarial tasdiqlangan yozma roziligini olish talab etiladi.

**Uchinchidan,** qonun loyihasida shaharsozlik renovatsiyasini amalga oshirishda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilyapti. Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta’minlash uchun barcha zarur sharoitni yaratishi, davlat organlari, ularning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan huquq egalarining huquqlarini buzishiga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy kafolatlanmoqda.

**To‘rtinchidan,** shaharsozlik renovatsiyasi doirasida huquq egasining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarda xususiy mulk huquqini hamda yer egasining yerga bo‘lgan huquqini amalga oshirish borasida yuzaga keladigan barcha ziddiyat va noaniqliklar huquq egasining foydasiga talqin qilinishi aks etyapti.



**Beshinchidan,** loyihada turar va noturarjoy mulkdorlariga adolatli kompensatsiya berish tizimi nazarda tutilmoqda. Ya’ni kompensatsiya shaharsozlik renovatsiyasi amalga oshiriladigan hududda yangi quriladigan turar va noturarjoy obyektini mulk qilib berish, boshqa joydan turar va noturarjoy obyektini mulk qilib berish, turar va noturarjoy obyektlarining bozor qiymatida pul mablag‘lari yoki kelishuv bitimida nazarda tutilgan boshqa shakllarda berilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, turar va noturarjoy obyekti kompensatsiya sifatida berilganda beriladigan uy-joy maydoni huquq egasining renovatsiya qilinayotgan uy-joy maydonidan kam bo‘lmasligi hamda yashash uchun tayyor holda topshirilishi va birinchi navbatda, pastki qavatlardan taklif etilishi kerakligi nazarda tutilmoqda.

Renovatsiya loyihasi “Shaharsozlik renovatsiyasi” elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalaridan foydalangan holda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi shartligi belgilanmoqda. Shuningdek, renovatsiya loyihasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashiga kiritiladi.

Shaharsozlik renovatsiyasi dasturiga kiritilgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish jarayonlari huquq egalari va boshqa jamoatchilik nazorati subyektlari uchun “Shaharsozlik renovatsiyasi” elektron platformasida qulay formatlarda onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, loyihada ekologiya va tabiatga zarar yetkazmaslik prinsipi ham mustahkamlanib, loyiha hududining kamida to‘rtdan bir qismi yashil maydonlardan iborat bo‘lishi, daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlari, madaniy yodgorliklar qat’iy himoya qilinishi belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Xususan, **O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Umid Yakubxodjayev** partiya saylovoldi dasturida renovatsiya to‘g‘risida ishlab chiqilayotgan har qanday qonunda uy-joy mulkdorlari, tadbirkorlarning mulk huquqi va qonuniy manfaatlari mutlaq kafolatlanishi asosiy maqsadlardan biri sifatida e’tirof etilganini ta’kidlab, renovatsiya loyihasi hududiga tushgan yer uchastkalari xususiy mulkda bo‘lgan taqdirda, mazkur yer uchastkalari qay tartibda olib qo‘yiladi, degan savolni o‘rtaga tashladi. Shuningdek, bunda shunchaki baholangan qiymatda kompensatsiya to‘lab emas, kelishuv asosida qayta sotib olish orqali renovatsiya dasturiga kiritilishini aniq belgilash taklifini bildirdi.

**O‘zXDP fraksiyasi a’zosi Dilbar Mamajonova** qonun loyihasi partiyaning asosiy elektorati bo‘lgan aholining ehtiyojmand qatlamlariga nisbatan bevosita ta’sir qilishiga e’tibor qaratib, ushbu qonun loyihasida keltirilgan tartib va qoidalar, kafolatlar ehtiyojmand aholining manfaatlarini yetarlicha himoya qiladimi, degan savolni o‘rtaga tashladi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a’zosi Noiba Inoyatova** bugungi kunda ekologik muammolar, ya’ni daraxtlarning kesilishi, ularning atrof-muhitga ta’sirining oldini olish maqsadida davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriy joriy etilganini aytib, qonun loyihasida daraxtlarni kesishga yo‘l qo‘yilmasligi va yashil hududlarni tashkil qilish masalasi aniq belgilanganligi yuzasidan aniqlashtiruvchi savol berdi.

**“Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi Shuhrat Yakubov** qonun loyihasining 6, 7, 21, 26, 29-moddalarida renovatsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida taklif kiritish uchun huquq egalarining notarial tartibda tasdiqlangan dastlabki roziligi olinishi nazarda tutilayotganini, biroq loyihada ushbu masala ochiq qolayotganiga urg‘u berdi. Xalq vakilining qayd etishicha, keyinchalik investor va’da qilingan to‘lovdan yoki kompensatsiya shaklidan voz kechsa yoki tan olmasa nima bo‘ladi? Shu bois mulkdorlarning dastlabki roziligi ham kelishuv bitimi tuzish orqali amalga oshirilishini, unda huquq egalari va renovatsiyani amalga oshiruvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari, kompensatsiya shakli va miqdori aks etishini aniq belgilab qo‘yish kerakligini ta’kidlab, ayrim moddalar bo‘yicha ham o‘z taklifini bildirdi.

Qonun tashabbuskorlari deputatlarning savollariga atroflicha tushuntirish berishdi. Bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda maromiga yetkazishda inobatga olinishi ta’kidlandi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Bolalarning ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi

Majlisda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan muhokama etildi.

Qonun loyihasida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo‘linmalarini yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash, ularning hisobini yuritish hamda muqobil joylashtirish shakllariga berish borasidagi vakolatlari belgilanmoqda.

Bolalarga tarbiya, ta’lim berish va sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha mas’ul shaxslarga o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash nazarda tutilmoqda. Shuningdek, vasiy yoki homiyni belgilash vakolatini hokimlardan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktoriga o‘tkazish taklif etilmoqda.

Loyihada notariuslar zimmasiga bolani farzandlikka berish (olish), bolani vasiylikka yoki homiylikka berish haqida arizadagi imzoning haqiqiyligini shahodatlash bo‘yicha murojaat qilingani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga taqdim etib borish majburiyatini yuklatish belgilanmoqda.

Ichki ishlar organlari, sudlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari, ta’lim tashkilotlari va boshqa muassasalar, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, notarius va boshqa fuqarolarga bolalar ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganligidan xabar topgach, 24 soat ichida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga xabar berishi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik, homiylik yoki tutingan ota-onalik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslarga bolalar farzandlikka berilmasligi va ular vasiy yoki homiy etib tayinlanmasligi ko‘zda tutilmoqda.

Loyiha bilan vasiylarning vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan vasiylikdagi shaxs nomidan meros va hadya olishdan voz kechish huquqi ham chiqarilyapti. Shuningdek, bola uchun undiriladigan alimentni kamaytirishga oid ishlarni ko‘rishda bola manfaatlarida “Inson” ijtimoiy xizmatlari vakilining majburiy ishtiroki belgilab qo‘yilmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan ota-ona yoki ota-onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslardan bolaning sog‘lig‘ini tiklash va reabilitatsiya uchun qilingan qo‘shimcha xarajatlarni bola foydasiga undirish haqida kiritilgan arizalar, yetim bola yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolani vasiy (homiysi), tutingan ota-onasi yashaydigan joyga doimiy ro‘yxatga qo‘yganda davlat boji to‘lashdan ozod etish taklif qilinmoqda.

Majlisda qonun loyihasining ayrim normalari yuzasidan bir qator aniqlashtiruvchi savollar ko‘tarildi. Jumladan, **“Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi Zuhriddin Mavlonov**ning ta’kidlashicha, Oila kodeksining 152-moddasida farzandlikka olish mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shaxslar toifasi belgilangan. Qonun loyihasida voyaga yetgan va maxsus o‘quv kurslarini tamomlaganlik haqidagi sertifikatga ega bo‘lgan shaxslargina farzandlikka oluvchilar ro‘yxatiga kiritilyapti. Buning zarurati nimada, deya qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

**O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi To‘ychi Yoqubov** qonun loyihasi bilan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan o‘zgartirishlarga to‘xtalib o‘tdi. Ya’ni 29-moddada “muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan hamda birinchi marta ishga kirayotgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga tanlovsiz ishga qabul qilish” masalasi ko‘tarilayotganini, tanlovlarda oddiy oila farzandlari, ya’ni boquvchisini yo‘qotgan, ehtiyojmand oila farzandlari ham ishtirok etishini nazarda tutgan holda, bunda ularning huquqlari poymol bo‘lmaydimi, degan savol bilan qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

Ular esa deputatlar tomonidan ko‘tarilgan barcha savollarga atroflicha tushuntirish berib o‘tdi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

*O'zbekiston – imkoniyatlar yurti. Sahro desang – sahrolari bepoyon, tog' desang – tog'lari zabardast. Yozi yozdek, qishi qishdek. Bahorining go'zalligiga shoir lol, kuzining unumidan dehqonlar besarishta. O'lkamiz, xalqona ibora bilan aytganda, "kelinchakning uyiday". Odamlarimiz-chi? Elimizning ko'ngli osmoniday musaffo, fe'li sarhadlaridan keng...*



# SAYYOHLIK VA DAM OLISH MADANIYATI

## yangi O'zbekistonning xalqaro imijini oshirishga hissa qo'shadi

### Mushohada

O'zbek deyilsa, mehmondo'st el tushuniladi. Diyorimiz dovrug'ini eshitganlar "Bir borsam, ko'zlarim bilan ko'rsam", deydi. Ana shunday sayyohlardan biri yurtimiz haqida to'lqinlanib gapiradi: "O'zbekiston ko'chalarini kezarkansiz, tezda shuni idrok etasiz chiroyli gumbazli masjidlari yoki qadimiy bozorlari emas, balki ajoyib xalqi bu yurtning boyligidir. O'zbeklar o'z qalblarida saxovat va ochiqlikning o'ziga xos uyg'unligini saqlaydi".

Bizni xalq qilgan yana bir mumtoz jihatimiz – xonadon, mahalla-ko'y, yurtimizning toza-ozodaligi, saranjom-sarishtaligi. "Qay bir oshxona yo restoranga kirmang, kirish qismida qo'l yuvish anjomining borligi – bu xalqning mehmondo'stligi va tozaligidan", deydi yana bir turist. Taomlarimizni tatib ko'rgan boshqa bir sayyoh esa "Taom yemak bu shunchaki tanovul emas, bir tarix va madaniyatni tanimoq" ekanini e'tirof etadi.

Rost, har qancha maqtasangiz, maqtashga arzigulik qadriyatlarimiz bor. Ana shu ma'naviy boyligimizning ushog'ini ham oyoqosti qilmaydiganimiz non kabi e'zozlashimiz, yurtimizning har qarich tuprog'ini asrab-avaylashimiz bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

### "Umid bilan ekilgan tayoq..."

Darhaqiqat, yurtimizga chet ellik sayyohlarning qiziqishi katta. Turizmni rivojlantirish mamlakatimiz istiqbolida moddiy-ma'naviy jihatdan muhim rol o'ynaydi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda sayyohlik tarmog'ini yuksaltirish maqsadida ko'plab qonun va farmonlar imzolandi, sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, sayyohlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida 2019-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni imzolangan.

Ushbu hujjatda sohani mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish, sayohatlarni amalga oshirish chog'ida fuqarolarning dam olish, erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash, ichki turizmni kengaytirish belgilangan. Jumladan, ijtimoiy turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun turizm hamda ekskursiyalarni tashkil etishda zarur shart-sharoitlar yaratish qayd qilingan. Sohaga investitsiyalarni jalb etish va buning uchun qulay shart-sharoitlar hozirlash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish, ularni soliq va bojxona imtiyozlari orqali rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va mol-mulki himoya qilinishini ta'minlash qamrab olingan.

"Umid bilan ekilgan tayoq bir kun berar mevayu yaproq" deganlaridek, mamlakat ravnaqi, xalq manfaati yo'lida uzoqni ko'zlab, puxta reja asosida qilinadigan ishlar o'z samarasini bermay qolmaydi. Yurtimizda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, turizm tarmog'i ham keskin sur'atlarda taraqqiy etmoqda. Misol uchun, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni yil sayin ortib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, 2017-yilda ular 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda jami 8,2 mln. nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda tashrif buyurgan.

Mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning shu yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq joriy yil yakuniga qadar respublika hududlariga 15,8 mln. xorijiy turistning safarlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 4 mlrd. AQSH dollariga yetkazish ko'zda tutilgan.



**G'olib BAHROMOV ("Xalq so'zi".)**

Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish hisobiga 40 mln. mahalliy sayyohning hududlarga safarlarini uyushtirish, qo'shimcha 378 ta tur-operator faoliyatini yo'lga qo'yish, hududlarda yangi 108 ta mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi va 123 ta xostel qurish, 745 ta kapsula va o'tov uyi, apart-otel, modulli mehmonxonalar hamda 12 ta turizm qishlog'i va turizm mahallasini tashkil etish maqsad qilingan.

### Turistlar tashrifi yurtning ovozasini oshiradi

Bunday keng ko'lamli chora-tadbirlarning barchasi davlatimiz ravnaqi, xalqimiz manfaatlari uchun amalga oshirilayotgan ekan, ayni paytda bu imkoniyatlar biz, fuqarolar zimmasiga ham muayyan mas'uliyatni yuklaydi.

– Bizning buyuk o'tmishimiz va qadriyatlarimizdan kelib chiqib, dunyoning har yeridan, ayniqsa, Sharq davlatlari, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Hindiston, Turkiya va boshqa ko'plab davlatlardan son-sanoqsiz sayyohlarni jalb qilishimiz mumkin va bu mamlakatimizga turizm sohasidan katta daromad keltirishi turgan gap, – deydi Dubay shahridagi "Kempiniski" mehmonxonasi xodimi Shuhrat Yakubov. – Lekin buning uchun kelayotgan mehmonlar bizdan sharoitimiz, muomala-munosabatimizdan ranjimay ketishlari, mamnun holda xayrlashishlariga erishishimiz zarur. Biz, avvalo, insonlarning eng birlamchi ehtiyojlarini hisobga olishimiz kerak. Chunki kelayotgan sayyohlar birlamchi ehtiyojlaridan kelib chiqib ilk taassurotga ega bo'ladi. Misol uchun, yurtimizning har go'shasida insonlarning oddiy ehtiyojlari sanalgan hojatxona, oshxona, ibodatxonalar yetarli bo'lishi zarur. Qaysi bir rivojlangan davlatga bormang, ko'chalarda, metro bekatlari va boshqa jamoat transportlari bekatlarida, savdo markazlari, restoranlarda toza-ozoda, puli to'lanmaydigan hojatxonalarni ko'rasiz. Bu narsa bizda, hali, afsuski, ko'ngildagidek deb bo'lmaydi.

Albatta, hukumatimiz mana shu jihatlarga ham so'nggi yillarda ancha e'tibor qaratib kelmoqda va bundan keyin ham kamchiliklar to'ldirib boriladi. Shuningdek, ovqatlanish uchun sharoitlar turistlarning eng birinchi galda e'tibor beradigan jihatlaridan. Yurtimizga borgan mehmonlarning taomlarimiz turli-tumanligi, shirinligi, pokizaligidan so'z ochib, olqishlaganini ko'p eshitganmiz. Lekin faqat ovqat tutqazish, aylanishga taklif qilishning o'zi turistlarni, xususan, musulmon sayyohlarni qoniqtirmaydi. Ularning e'tiqodiy ehtiyojlari ham ular hayotining ajralmas bir bo'lagi sanaladi. Shunday ekan, bu borada ham sayyohlar qadami yetadigan har joyda sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq.

Nafaqat bizning yurtimiz, balki butun dunyoda kuzatiladigan bir illat – bilmaydigan odamni talash, chuv tushirishga urinish holatlari uchrab turadi gohida. Bunday vaziyatga tushgan turistlar hadiksirab qoladi. Xayriyatki, bu narsa, ya'ni arzon buyumni ancha qimmatga sotish, chet ellik sayyohlarni manziliga eltuvchi taksi haydovchilarining juda qimmat narx aytishga urinishi va shu kabi hodisalar ancha kamayganini payqadik.

Nafaqat turistlar uchun, balki o'zimiz, o'z istiqbolimiz uchun ba'zi bir yomon illatlar, odamni uyaltiradigan odatlardan voz kechishimiz kerak. Buning uchun xalqimizda azaldan bor bo'lgan to'g'riso'zlik, halollik, ozodalik, chiroyli muomala kabi ayrim ko'nikmalarni asrab-avaylash, ularni yo'qotmaslik, aksincha, yanada boyitish zarur. Maktablarda, mahallalarda kerakli tushuntirish ishlari olib borilishi, ommaviy axborot vositalari, xususan, ko'pchilik ko'radigan televideniye imkoniyatlaridan foydalanib xalqning ma'naviyatini, ma'rifatini o'stirishga muntazam harakat qilinsa, albatta, samarasini beradi.



Shubhasiz, kimnidir chuv tushurish evaziga mo'maygina pul ishlab olishga urinish kayfiyati insonni, xususan, tadbirkorni kreativ fikrlashdan, o'z ustida ishlash, ishini jadal rivojlantirish yo'lidan chalg'itadi. Shuning uchun bunday qarashlardan voz kechishimiz, taqdim qila olgan sifatli mahsulotimiz, xizmatimiz evaziga rizq-ro'z topishga odatlanishimiz kerak. Bu har qanday tadbirkorlik subyektini raqobatbardosh qiladi. Sayyohlar ishonchi uning ovozasini oshiradi. Bunga misol sifatida kuni kecha Rishton tumanidagi Xalqaro kulolchilik markazi, hunarmandlar rastalari, oilaviy mehmon uylari tashkil qilingani hamda boshqa turdagi turizm yo'nalishlari bilan o'rnak bo'lgan Mamadali Topvoldiyev nomidagi mahallaga "Turizm mahallasi" maqomi berilganini eslashimiz kifoya. Ana shunday tajribalarni ommalashtirish ayni muddao.

### Vatanimizning har qadami muqaddas

Bugungi kunda ichki turizm ham tobora taraqqiy etmoqda. Bu xalqimizning iqtisodiy ahvoli kun sayin o'nglanayotganidan. Shukrki, mustaqillikning dastlabki yillarida qorin to'yg'azishga qiynalib qolgan mamlakatimiz aholisining iqtisodiy ahvoli yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Bu, hech shubhasiz, davlatimiz miqyosida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, oxirgi yillarda Prezidentimizning aholi turmush darajasini ko'tarish borasidagi oqilona siyosatining samarasidir. Shuning barobarida, bu farovonliklar zamiridagi mehnatkash xalqimizning ham kechani kecha, kunduzni kunduz demay chekayotgan zahmatlari, fidoyiliklarini tilga olmoq zarur. Tinim bilmay mehnat qilayotgan, buning natijasida yaxshi daromad topayotgan insonlar, tabiiy ravishda, dam olish, maroqli hordiq chiqarishga ehtiyoj sezadi.

Mana, ayni yoz fasli. Serquyosh o'lkamizda saratonning issiq tafti hukmron. Mevayu sabzavotlar, ekin-tikinlarimizning g'arq pishib yetilishi uchun quyosh bor mehrini, taftini ayamay sochmoqda. Bu yaxshi, ammo bizning issiq jonimiz bunday kunlarda soya-salqin joylarni qo'msaydi-da. Insonning tog' bag'irlariga chiqqisi, anhor bo'ylarida yozilib-yayragisi, cho'milib zavqlarga to'lgisi keladi.

Ko'pchilik yurtdoshlarimiz yurtimizning turli go'shalaridagi bahavo joylarga borib, oilasi, farzandlari bilan miriqib hordiq chiqarmoqda. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida joylashgan Hisor tog'i tizmalari orasidan sharqirab oqib kelayotgan Qizildaryo bo'ylari bugun ana shunday dam oluvchilarga to'la. Bu yerda istiqomat qiluvchi aholi dam olish maskanlari barpo etib, mehmonlarning xizmatiga doimo shay.

– "Yigit kishiga qirq hunar oz", deganlaridek, ishdan bo'sh vaqtlarimda, xususan, o'quvchilar ta'tilda bo'lgan ayni yoz oylarida tadbirkorlik bilan ham shug'ullanaman, – deydi Yakkabog' tumanidagi Suvlisoy qishlog'ida joylashgan 68-maktab o'qituvchisi Abdusamad Ochilov. – Qizildaryo bo'ylariga o'zimizning viloyatimizdan, Buxoro, Navoiy, Xorazm taraflardan ko'plab mehmonlar kelishadi. Toza havo, ochiq tabiat qo'ynida miriqib dam oladi. Kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan bolajonlarning quvonchu shodligini ko'rib, ko'zimiz quvnaydi. Qo'limizdan kelganicha mehmonlarga xizmat qilishga shaylanamiz. Borgan sari kamchiliklarni to'ldirib, dam oluvchilarning talab va takliflari asosida sharoitimizni yaxshilashga urinyapmiz.

Sayyohlar orasida o'zini tutishi, madaniyati bilan hammaga o'rnak bo'ladigan kishilar ko'p. Ular muomalasi go'zalligi, saranjom-sarishtaligi, maqtovga arzirli madaniyati bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Bunday insonlarni ko'rib, demak, qaysidir ko'nikmalarni, chiroyli xulq-atvor, go'zal madaniyatlarni ommaviy tarzda shakllantirish mumkin ekan, degan xulosaga borasan, kishi. Buning uchun esa har sohada bo'lgani kabi o'rnak ko'rsatadigan shaxslar darkor. Afsuski, ba'zan buning aksini ham ko'rishga majbur bo'lamiz. Ayrim dam oluvchilar kelar-kelmas hamma yoqni ifloslantirishga kirishadi. Ming-minglab odamlar foydalanib turgan zilol suvga chiqindilar tashlashadi. Hatto suvga uloqtirilgan bolalar tagliklarini ko'rib, nima deyishni ham bilmay qolamiz. Ba'zi kimsalar esa me'yoridan ortiq ichkilik ichib, turli tartibsizliklar chiqarib turadi. O'zligini yo'qotib, ichki kiyimlarda yurganini ko'ramiz, hatto yoshi bir joyga borganida ham oilasi, kelinlari, qizlari oldida shu qiyofada turishdan uyalishmaydi...

Men tarix o'qituvchisi sifatida shuni qo'shimcha qilib aytishim mumkinki, ilm-ma'rifatli, madaniyatli, o'z qadriyatlariga ega xalqlar insoniyat rivojiga doim hissa qo'shishgan, ular jahon maydonida peshqadam bo'lib, boshqa xalqlarni ortlaridan ergashtirganlar. Shuning uchun ham, insonlarimizni, xalqimizni, farzandlarimizni hamisha yuksak madaniyat, chiroyli fe'l-atvorda ko'rsak, ayni muddao va mana shu narsa – istiqbolimiz kafolati.

Haqiqatan ham, turistik makonlarni, dam olish maskanlarini obod qilish, bunday joylardagi shart-sharoitlar, qulayliklarni yuqori did va puxta reja asosida barpo etishning o'zi bilangina ish bitib qolmaydi. Yaratilgan qulayliklar, shart-sharoitlardan to'g'ri va oqilona, vijdonan foydalanish masalasi ham hamisha dolzarb.

Qonunchiligimizda ham bunday obyektlarni asrab-avaylash, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarda o'zboshimchaliklarga yo'l qo'ymaslik masalalari o'z ifodasini topgan. Masalan, 2025-yil 5-may kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunda "Davlat mulki bo'lgan hamda aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarni yoki ularning bir qismini xususiylashtirish yoxud boshqacha tarzda begonalashtirish, ushbu yerlarda binolar va inshootlarni qurish (bundan yengil turdagi obyektlar, shuningdek obodonlashtirish va muhandislik infratuzilmasi obyektlari mustasno) yoki mavjud binolar va inshootlarning qurilish maydonlarini kengaytirish, shuningdek ushbu yerlarning hududini qisqartirish taqiqlanadi", deyiladi.

*Albatta, Vatanimizning har qarich yeri muqaddas. Uni asrab-avaylash barchamizning fuqarolik burchimiz. Bu zaminni ajdodlarimizdan omonat oldik, avlodlarimizga bekamu ko'st topshiramiz. Bu muqaddas yurtda yashayotgan biror insonga, nabototu hayvonotga, tuprog'u toshga ziyon-zahmat yetkazishga hech kimning haqqi yo'q.*

*Demak, sayyohlik va dam olish madaniyatimizni, qonunlarga qat'iy rioya etish ko'nikmamizni yanada yuksaltirib borish nafaqat soha rivojini ta'minlaydi, balki xalqimizning obro'-e'tiborini mustahkamlaydi, yangi O'zbekistonning xalqaro imijini oshirishga hissa qo'shadi.*

---

# SPORT xabarlari

## Fransiya yoshlari – jahon chempioni

*Mamlakatimizda dunyoning eng kuchli 24 ta jamoasini bir maydonga to'plagan voleybol bo'yicha yigitlar o'rtasidagi "U-19" jahon chempionati yakuniga yetdi.*



Oltin medal uchun kechgan final bahsida amaldagi jahon chempioni Fransiya yoshlar terma jamoasi Polsha vakillarini 3:1 hisobida mag'lub etib, yana bir karra musobaqa g'olibligini qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rin uchun kechgan murosasiz o'yinda esa Ispaniya terma jamoasi eronliklar ustidan g'alaba qozondi, hisob – 3:2.

Tantanali taqdirlash marosimida O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi rahbariyati qatnashib, g'olib va sovrindorlarni qutladi.

## Akademik eshkak eshuvchilar Osiyo birinchiligida qatnashadi

*5 – 12-avgust kunlari Tailandning Pattayya shahrida akademik eshkak eshish bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tadi.*

Musobaqada Yevgeniy Agafonov bosh murabbiyligidagi O'zbekiston terma jamoasi har ikki toifa bo'yicha bahslarda qit'a g'olibligi uchun kurash olib boradi. Sportchilarimiz Sh. Xolmurzayev, S. Safaraliyev, Sh. Shodiyev kattalar o'rtasidagi bellashuvlarda qatnashsa, O. Bahodirov, Q. Xotamov, S. Abdurashidova esa yoshlar qarama-qarshiligida o'z imkoniyatini sinovdan o'tkazadi.

## Bokschilarimizdan yorqin g'alaba

*Poytaxtimizdagi "Jar" sport majmuasida professional boks oqshomi tashkil etildi.*



Uning markaziy jangida o'ta yengil vazn toifasida "WBO Oriental" va "WBO International" kamarlari sohibi, o'zbekistonlik Olimjon Nazarov Qirg'iziston vakili Mirlan Turkibay uuluga qarshi ringga chiqib, 10 raundlik bahsda ochkolar hisobiga ko'ra g'alaba qozondi.

Bundan tashqari, havaskor boksdagi faoliyati orqali tanilgan Nodirjon Mirzaahmedov musobaqa doirasida professional boksdagi debyut jangini o'tkazdi. U qozog'istonlik Assan Kalmaxanovni ochkolar hisobiga ko'ra yengib, ilk g'alabasini qo'lga kiritdi.

## Fomin uchun "Bonn Open" turniri yakunlandi

*Germaniyaning Bonn shahrida tennis bo'yicha "Chellenjer" turkumiga kiruvchi turnirning saralash bahslari o'tkazildi.*

Mukofot jamg'armasi 91 mingdan ziyod yevroni tashkil etuvchi "Challenger 75" toifasiga kiruvchi turnirda yurtdoshimiz Sergey Fomin ham o'z imkoniyatini sinab ko'rdi.

Saralash bahslarida 10-raqam ostida qatnashgan mamlakatimizning ikkinchi raketkasi yarimfinalda braziliyalik Uilson Leyteni 6/1, 7/5 hisobida mag'lub qildi. Asosiy bahslarga chiqish uchun kechgan final bahsida esa saralashning 4-raketkasi Gonsalo Villanueva (Argentina) ga 6/7, 2/6 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi. Shu tariqa S. Fomin uchun Germaniyadagi musobaqa erta yakunlandi.

**Sunnatilla ISLOMOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.**

---

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Devoni jamoasi Parlament axborot-tahlil markazining rahbari C. A. Xamidullayevga volidai muhtaramasi **Dilorom AKILOVA**ning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor etadi.

---

**Samarqandda I yozgi arxeologiya maktabi o'z ishini boshladi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 05.40 Topshirildi — 05.45 1 2 3 4 5 6